

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAKTABGACHA TA’LIM
bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga

**TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI
SUHBAT ASOSIDA
O‘QISHGA QABUL QILISH UCHUN**

SUHBAT SAVOLLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur suhbat savollari texnikum bitiruvchilarining **Maktabgacha ta'lim** bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi, sohaga oid bilimlari, kasb tanlash motivatsiyasi, shaxsiy-kasbiy fazilatlari hamda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risidagi bilimlarini baholash maqsadida ishlab chiqilgan.

Savollar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga texnikum bitiruvchilarini suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, abituriyentlarning mantiqiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarishi, kasbiy kompetensiyalari va muloqot madaniyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Tuzuvchi:

G.A.Komilova-BuxDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.d.(DSc), professor
G'.M.Sayfullayev-BuxDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.n.

Taqrizchi

A.Sh.Husenova- BuxDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

Dastur Buxoro davlat pedagogika institutining 2026-yil 2-iyuldagi 11-sonli kengashida ma'qullangan.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar bo'yicha bilishi kerak:

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

Maktabgacha ta'limning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini izohlang.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va qamrovini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash nima uchun muhim hisoblanadi?

Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati nimada?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklarini tushuntiring.

Bolalarning intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda maktabgacha ta'limning o'rni qanday?

Inklyuziv ta'lim nima va uni maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantirishning ahamiyati nimada?

Maktabgacha ta'lim tizimida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish nima uchun muhim?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida ota-onalar bilan hamkorlik qanday ahamiyatga ega?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish nima uchun muhim?

Maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni joriy etishning afzalliklari nimada?

Maktabgacha ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlarining vazifasi nimadan iborat?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining kasbiy mahorati ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi?

Erta yoshdan ta'lim va tarbiya berishning bola shaxsining rivojlanishidagi ahamiyatini tushuntiring.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish qanday amalga oshiriladi?

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qanday hissa qo'shadi?

Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar deganda nimani tushunasiz?

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishining sababi nima?

Maktabgacha ta'lim tizimida sifatni baholash va monitoring ishlari nima uchun muhim?

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kelajak avlod tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Sizning fikringizcha, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun qanday takliflarni ilgari surish mumkin?

Agar siz maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bo'lsangiz, bugungi islohotlarni amaliyotga joriy etish uchun qanday ishlarni amalga oshirgan bo'lardingiz?

Maktabgacha ta'lim yo'nalishini tanlash motivatsiyasi bo'yicha bilishi kerak:

Nima sababdan aynan **Maktabgacha ta'lim** bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanladingiz?

Sizningcha, maktabgacha ta'lim sohasi jamiyat uchun nima sababdan muhim?

Tarbiyachi kasbining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Sizni ushbu kasbga qiziqtirgan omillar qaysilar?

Kelajakda o'zingizni qanday tarbiyachi sifatida tasavvur qilasiz?

Bolalar bilan ishlash sizga nima uchun yoqadi?

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash boshqa pedagogik yo'nalishlardan nimasi bilan farq qiladi?

Tarbiyachi kasbining jamiyatdagi o'rni va nufuzini qanday baholaysiz?

Sizningcha, yaxshi tarbiyachi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

Ushbu kasbni tanlashingizga oilangiz yoki ustozlaringiz ta'sir ko'rsatganmi?

Bolalar tarbiyasida tarbiyachining mas'uliyati nimada deb o'ylaysiz?

Agar maktabgacha ta'lim yo'nalishiga qabul qilinsangiz, o'zingizni qanday rivojlantirishni rejalashtirgansiz?

Tarbiyachi bo'lish uchun qanday shaxsiy xarakteristikalar sizga yordam beradi?

Kasbiy faoliyatingiz davomida qanday yutuqlarga erishishni maqsad qilgansiz?

Sizningcha, bolalarga mehr va e'tibor nima uchun muhim?

Tarbiyachi kasbida sabr-toqatning o'rni qanday?

Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ijodkorlik nima uchun zarur?

Sizningcha, maktabgacha ta'lim kelajakdagi muvaffaqiyat uchun qanday poydevor yaratadi?

Tarbiyachi kasbini tanlash orqali jamiyat rivojiga qanday hissa qo'shishni istaysiz?

Kasbingizga bo'lgan qiziqishingizni qanday rivojlantirib borasiz?

Agar qiyinchiliklarga duch kelsangiz, kasbingizga bo'lgan qiziqishni qanday saqlab qolasiz?

Maktabgacha ta'lim sohasidagi yangiliklarni qanday kuzatib borishni rejalashtirgansiz?

Tarbiyachi uchun uzluksiz o'qib-o'rganish nima uchun muhim?

Sizningcha, bolalarga ta'lim berishda eng muhim qadriyat nima?

Bolalar bilan ishlashda muloqot madaniyatining ahamiyati nimada?

Sizningcha, tarbiyachi ota-onalar bilan qanday hamkorlik qilishi kerak?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlash siz uchun qanday imkoniyatlarni yaratadi?

Kelajakda qanday zamonaviy pedagog bo'lishni xohlaysiz?

Sizningcha, tarbiyachining shaxsiy namunasi bolalar tarbiyasiga qanday ta'sir qiladi?

Maktabgacha ta'lim yo'nalishini tanlashda siz uchun eng muhim omil nima bo'ldi?

Tarbiyachi kasbining ijobiy va murakkab jihatlari nimalardan iborat?

Agar siz maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari bo'lsangiz, pedagoglar faoliyatini rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirardingiz?

Tarbiyachining kasbiy etikasi deganda nimani tushunasiz?

Sizningcha, zamonaviy tarbiyachi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?

Maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro tajribalarni o'rganish nima uchun muhim?

Agar sizga maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha taklif berish imkoniyati yaratilsa, qanday taklif bildirgan bo'lardingiz?

Kasb tanlashda moddiy manfaat va kasbga muhabbat o'rtasida qaysi biri muhimroq deb hisoblaysiz? Nima uchun?

Tarbiyachi kasbini tanlaganingizdan afsuslanmasligingiz uchun nimalarga e'tibor berasiz?

O'n yil o'tgach, o'zingizni kasbiy faoliyatingizda qayerda ko'rasiz?

Nima uchun suhbat komissiyasi aynan sizni **Maktabgacha ta'lim** yo'nalishiga tavsiya qilishi kerak deb hisoblaysiz?

Shaxsiy-kasbiy xususiyatlarga oid ma'lumotlarni bilishi kerak:

O'qishga qobiliyat va o'z ustida ishlash

O'zingizni bilim olishga intiluvchan shaxs deb hisoblaysizmi? Javobingizni misol bilan asoslang.

Yangi bilim va ko'nikmalarni egallash uchun qanday usullardan foydalanasiz?

So'nggi bir yil davomida o'zingizni rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirdingiz?

Kelajakda kasbiy mahoratingizni oshirish uchun qanday rejalaringiz bor?

Tanqid va tavsiyalarni qanday qabul qilasiz?

Bilimingiz yetarli bo'lmagan vaziyatlarda qanday yo'l tutasiz?

Kasbiy vazifalarni hal qilishdagi amaliy faoliyat

Tarbiyachi faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatni qanday hal qilgan bo'lardingiz?

Bolalar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa, qanday yo'l tutasiz?

Mashg'ulot reja bo'yicha o'tmay qolsa, vaziyatni qanday boshqarasiz?

Tarbiyachi sifatida bolalarning xavfsizligini ta'minlash uchun nimalarga e'tibor qaratasiz?

Ota-onalar bilan fikrlar kelishmasa, muammoni qanday hal qilgan bo'lardingiz?

Tarbiyachi ishida tashabbuskorlik nima uchun muhim?

Intizom va mas'uliyat

Siz uchun intizom deganda nimani tushunasiz?

Mas'uliyatli insonning qanday fazilatlari bo'lishi kerak?
Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish uchun qanday reja asosida ishlaysiz?

Agar xato qilgan bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?

Tarbiyachi uchun ish etikasi nima uchun muhim?

Mas'uliyat va tashabbus bir-biriga qanday bog'liq deb o'ylaysiz?

Hamjihatlik va jamoada ishlash

Jamoada ishlash siz uchun nimani anglatadi?

Hamkasblar bilan samarali hamkorlikni qanday yo'lga qo'yish mumkin?

Jamoada kelib chiqqan nizolarni bartaraf etishda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom jamoaviy muhitni yaratishda tarbiyachining o'rni qanday?

Mustaqillik va qaror qabul qilish

Mustaqil qaror qabul qilish siz uchun nimani anglatadi?

Tezkor qaror qabul qilish talab etiladigan vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

Qaror qabul qilishdan oldin nimalarni hisobga olasiz?

Sizningcha, tarbiyachi qaysi masalalarda mustaqil qaror qabul qila olishi kerak?

Shaxsiy yutuqlar va ijodkorlik

Shu kungacha erishgan eng muhim yutug'ingiz haqida so'zlab bering.

Bolalar bilan ishlashda ijodkorlikni qanday namoyon etish mumkin?

Agar sizga yangi ta'limiy o'yin yaratish vazifasi topshirilsa, uni qanday tashkil qilgan bo'lardingiz?

Zamonaviy tarbiyachi o'z ustida ishlashi va ijodkor bo'lishi nima uchun muhim deb hisoblaysiz?

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim va kasbiy ko'nikmalarga oid bilimlar bo'yicha bilishi kerak:

Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish nima uchun muhim?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda qaysi omillar muhim hisoblanadi?

Maktabgacha ta'limda o'yin faoliyati nima uchun yetakchi faoliyat hisoblanadi?

Bolalarda nutqni rivojlantirish uchun qanday pedagogik usullardan foydalanish mumkin?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

Mashg'ulotni rejalashtirishda tarbiyachi nimalarga e'tibor qaratishi kerak?

Bolalarning bilish faolligini rivojlantirish uchun qanday metodlardan foydalanish mumkin?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan hamkorlik qanday tashkil etiladi?

Bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishda tarbiyachining mas'uliyati nimadan iborat?

Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarning ahamiyati nimada?

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qanday faoliyatlarni tashkil etish mumkin?

Inklyuziv ta'lim nima va u maktabgacha ta'limda qanday amalga oshiriladi?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati nimada?

Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qanday ishlar olib boriladi?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirishning samarali usullarini ayting.

Bolalarda mustaqillik va mas'uliyat hissini shakllantirish uchun qanday pedagogik yondashuvlardan foydalaniladi?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kuzatish metodining ahamiyati nimada?

Bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qanday amalga oshiriladi?

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maktabgacha ta'limda qanday foydalanish mumkin?

Bolalarning rivojlanishini baholashda tarbiyachi qaysi mezonlarga e'tibor qaratishi kerak?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha qanday ishlar olib boriladi?

Agar guruhdagi bola mashg'ulotda ishtirok etishni istamasa, tarbiyachi qanday yo'l tutishi kerak?

Sizningcha, zamonaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachisi qanday bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi ta'lim muhiti deganda nimani tushunasiz?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun qanday metodlardan foydalanish mumkin?

Bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining o'rni qanday?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ertalabki qabul jarayoni qanday tashkil etilishi kerak?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni oshirish uchun qanday ishlarni tashkil etish mumkin?

Sayr (ochiq havodagi faoliyat)ning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati nimada?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa va harakatli o'yinlarning bolalar rivojlanishidagi o'rni qanday?

Tarbiyachi bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini qanday aniqlashi mumkin?

Maktabgacha ta'limda STEAM elementlaridan qanday foydalanish mumkin?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qanday amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin?

Bolalarda mehnatsevarlik va tejamkorlik fazilatlarini shakllantirish uchun qanday tarbiyaviy ishlarni olib borish mumkin?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining vazifalari nimalardan iborat?

Bolaning rivojlanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining ahamiyatini tushuntiring.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bayramlar va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik ahamiyati nimada?

Bolalarda Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda kuzatish va rag'batlantirish usullaridan qanday foydalaniladi?

Tarbiyachi bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qanday yondashuvni qo'llashi kerak?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun qanday profilaktik choralar ko'riladi?

Sizning fikringizcha, zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun qanday innovatsion g'oyalarni taklif qilgan bo'ladingiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida"gi Qonuni. O‘RQ–595-son, 2019-yil 16-dekabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirish hamda maktabgacha ta’limni takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining maktabgacha ta’limga oid me’yoriy hujjatlari.

II. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv-metodik hujjatlar

Maktabgacha ta’limning Davlat ta’lim standarti.

"Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. – Toshkent.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga qo‘yiladigan davlat talablari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.

III. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

Xasanboyeva O., Toshpo‘latova Sh., va boshqalar. Maktabgacha pedagogika.

– Toshkent.

Qodirova F. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent.

Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent.

Nishonova Z., Alimuhamedov S. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika. – Toshkent.

Maktabgacha ta’lim metodikalariga oid o‘quv qo‘llanmalar.

Nutq o‘stirish metodikasi bo‘yicha o‘quv adabiyotlari.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi.

Tasviriy faoliyat metodikasi.

Musiqiy tarbiya metodikasi.

Jismoniy tarbiya metodikasi.

IV. Xalqaro hujjatlar

UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action.

UNICEF. Early Childhood Development Framework.

UN Convention on the Rights of the Child (CRC).

Sustainable Development Goal 4 (SDG-4): Quality Education.

V. Elektron ta’lim resurslari

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi –

<https://lex.uz>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.

Oliy ta’lim bo‘yicha rasmiy axborot portallari.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari.

ZiyoNET ta’lim portali.

VI. Suhbat savollarini ishlab chiqishda foydalanilgan manbalar

Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga suhbat asosida qabul qilish tartibi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalari.

Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari.

Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlari.

Maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodik tavsiyalar.